

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA INNOVASION
FAOLIYATNING SHAKLLANGANLIK DARAJASI****Dilnoza Karimjanova ¹**¹ “Yangi asr” univristeti

“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi”

mutaxassisligi 1-bosqich magistiri

**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:**

Received:26.02.2025

Revised: 27.02.2025

Accepted:28.02.2025

*Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini
innovation faoliyatga tayèrlash masalalari haqida
fikir yuritilgan.*

KALIT SO‘ZLAR:

*innovation
dunèqarash, yangi
andozalar, pedagog
shaxsi, kouching,
texnologiya.*


KIRISH.

Innovation faoliyatning texnologik komponenti – refleksiv xususiyatga ega bo‘lib, ta’lim oluvchilar jamoasi fikri va harakatini hamda o‘z faoliyatini anglash, o‘z-o‘zini tahlil qilish, baholash, tushunish va talqin qilish faoliyatini yoritadi. N.V.Kuzmina tomonidan ishlab chiqilgan pedagog faoliyatining funksional modelida pedagog refleksiyasi gnostik komponentga kiritilgan. Talabalarda innovation faoliyatning shakllanganligini to‘rtta daraja asosida baholash mumkin. Tadqiqotchilar innovation faoliyatning yana bir mohiyatini - «innovation shok» toifasini ajratadilar. Masalan, O.S.Sovetova o‘z tadqiqot ishida uchta bosqichga ega bo‘lgan «innovation shok» tushunchasini qo‘llaydi. Birinchi bosqich tashabbus, ko‘tarinki kayfiyat, kuchli ijtimoiy faollik, o‘zgarishlarga katta istak, o‘z-o‘zini amalga oshirish va istiqbollarning yorqinligi va o‘z-o‘zini kuchli ifodalash bilan tavsiflanadi. Ikkinchi bosqich – o‘zgarishlar tezkor va istalgan natijalar bermayotganligidan umidsizlik, tushkunlik, befarqlik bilan ifodalanadi. Noqulay fonda bu bosqich cho‘zilishi va

murakkablashishi mumkin, ammo qat'iy izchil harakat qilish holatida, muallifning so'zlariga ko'ra, uchinchi bosqich - yengillik, qoniqish, ishonch, o'z-o'zini dolzarblashtirish hissi xos, ya'ni boshqacha aytganda, «innovation shok» «frustratsiya – moslashish va vaziyatlar hamda qadriyatlarni muvofiqlashtirish – o'z-o'zini amalga oshirish va shaxsiy o'sish» sxemasi bo'yicha kechishi mumkin. Shunday qilib, o'qituvchining innovation faoliyati tuzilishi funksional komponentlar, mezon, daraja va tuzilish komponentlaridan iborat:

Individual-ijodiy yondashuv innovation faoliyat modelini qurishning metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv V.A.Kan-Kalik ishlarida nazariy asoslangan. Uning mohiyati shundan iboratki, u shaxsning umumiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmini ishga tushirishga imkon beradi va kasbiy shakllanish jarayonida motivatsiyani, uning dinamikasini nazarda tutadi. Individual ijodiy yondashuvning asosiy vazifasi shaxsning o'z-o'zini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ijodiy imkoniyatlar tashxisi va rivojlanishi, mualliflik vaziyati, pedagogik faoliyatning betakror texnologiyasidan tashkil topadi.





Rivojlangan jamiyat innovasion yondashuv tipdagi ta'lim tizimi bo'lajak kasb egalarining o'ziga va o'z kasbiy qobiliyatlariga ishonch, javobgarlikni talab etadi. oliy ta'lim muassasalarida pedagoglar tayyorlash mazmunining prinsipial o'zgarishi aniqlangan ta'lim paradigmalari o'zgarishi bilan bog'liq holda zamonaviy oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining pedagogik tayyorgarligini tashkil etishga yangicha metodologik yondashuvlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni innovasion faoliyatga mustaqil, ijodiy, amaliy tayyorlash muammosi har doim pedagogika va psixologiya sohasidagi tadqiqot ishlarining diqqat markazida bo'lgan. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o'zlashtirgan kompetensiyalari qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog'liq. Umummajburiy, tayanch va ixtisoslashgan soha mantiqiy ketma-ketligini egallash sikli, shuningdek, pedagogik amaliyotni o'tash bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarning shakllanishini ta'minlaydi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim (1.3-rasmga qarang):



Boshlang'ich sinf o'qituvchisi innovasion faoliyatining asosiy xususiyati u kichik maktab o'quvchisi shaxsini shakllantirish boshlang'ich davrida amalga oshirilishi, atrof-olamni ilmiy bilishning dastlabki malakalarini shakllantirish va boshlang'ich sinf o'quvchilarining turli ijtimoiy munosabatlarga kirishlari bilan bog'liqligi hisoblanadi. Mazkur yaxlit jarayonni tizimli tashkil etishda markaziy o'rnini boshlang'ich sinf

o'qituvchisi ta'lim-tarbiya mazmunini tashuvchisi, o'quvchi bilish faoliyatining, shaxsining har tomonlama rivojlanishi va shakllanishi tashkilotchisi hisoblanadi.

Innovation faoliyat jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchisiga o'quvchisining yosh va individual xususiyatlari bilan bog'liq muammolarni yechishga to'g'ri keladi. Bu boshlang'ich sinfda innovatsiyalar xususiyati va mazmunida ifodalanadi. Ular mazmuni va ifodalanish shakli bo'yicha ko'p qirraliligiga ko'ra faoliyat turlari bo'yicha (pedagogik, boshqaruv), kiritiladigan o'zgarishlar xususiyatiga ko'ra (radikal, aralash, modifikasion), kiritiladigan o'zgarishlar miqyosi bo'yicha (lokal, modulli, tizimli), foydalanish miqyosi bo'yicha (bir martalik, tarqalgan), yuzaga kelish manbai bo'yicha (tashqi, ichki) belgilar asosida tasniflash qabul qilingan.

O'qituvchining innovation faoliyati xususiyatlari to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar uchun tarixga murojaat etish zarur. Ma'lum bo'lgan boshlanishni aniqlamay rivojlanish jarayonini aniqlab bo'lmaydi va tadqiq etiladigan hodisaning yetukligi yoki holatini aniqlash mumkin emas.

J.J.Russo bolalarni tabiiy takomillashtirish g'oyasidan kelib chiqib, pedagogikada "erkin tarbiyalash" va "pedotsentriklik", ya'ni to'liq bolalarning o'z hollaricha rivojlanishlariga xalal bermay, ularning istaklari va moyilliklariga rioya etish zaruriyati nazariyalarini ishlab chiqishga asos bo'ldi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida, ayniqsa, shvesiyalik pedagog I.G.Pestalossi o'qituvchilarga o'quvchilarning ta'limiy va axloqiy tarbiyasi haqidagi ilg'or nazariyasini taklif etgan. Uning kiritgan yangiliklari elementar boshlang'ich ta'lim nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, bolalar tarbiyaviy muassasalarida nazariy faoliyatni amaliy tarbiyaviy ish bilan umumlashtirgan.

V.A.Suxomlinskiy o'z tadqiqot ishlarini yoshlarni tarbiyalash ma'naviy muammolariga qaratgan. U pedagogikadagi yangi tadqiqotchilik metodini ishlab chiqqan – yaxlitlik, jamoaviy ijod, davomiylik kabi uchta asosiy xususiyatlarning umumiyligi bilan tavsiflanuvchi eksperiment olib borgan. Yaxlit va tizimli ta'lim sifatidagi shaxs to'g'risidagi dialektik-moddiy tasavvurlardan kelib chiqqan. Shaxsning har tomonlama uyg'un rivojlanishi butun o'quv-tarbiya ishlari o'quvchilarning yuqori axloqiy sifatlarni axloqiy o'z-o'zini takomillashtirish yo'li bilan singdirishga yo'nalganlik, ma'naviy va moddiy ehtiyojlar madaniyatini tarbiyalash, mehnatga tayyorlikni tarbiyalash, o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil ta'lim ehtiyojlarini shakllantirish, oilaning yuqori pedagogik madaniyati, ma'naviy yetuklikni tarbiyalash kabi muammolarni yechishning umumiyligida amalga oshirilgan. V.A.Suxomlinskiy pedagogik ta'sirlar uyg'unligi va maktabning kundalik hayoti,

jumladan, har bir o'qituvchining aniq xatti-harakatlarida tashkil topadigan amallarning yaxlitligi kabi tarbiyaviy tizim prinsiplarini taklif etgan. Uning innovatsiyalarini faoliyat turlari bo'yicha pedagogik va boshqaruv kabi tasniflash mumkin .

L.V.Zankov innovatsiyalarning asosiy xususiyatlari sifatida shaxsning yuqori umumiy rivojlanishiga, shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishi (mazmunni uyg'unlashtirish) uchun asoslar yaratishga yo'naltirilgan yuqori maqsadli va qadriyatli sharoitlarni ajratadi. Shuningdek, pedagogika nazariyasida ilgari surilgan konseptual qoidalar ichida alohida xususiyat sifatida quyidagilar ajratiladi:

- 1) nazariy bilimlarning yetakchi roli;
- 2) qiyinchilikning yuqori darajasida o'qitish;
- 3) materialni o'rganishda yuqori sur'atda ilgarilash;
- 4) bolaning o'qish jarayonini anglashi;
- 5) barcha bolalarning (kuchli va kuch siz) rivojlanishlari;

Bola bilan ishlash va darsni o'tkazish xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) bilishning borishi - «o'quvchilardan»;
- 2) o'quvchi faoliyatining qayta o'zgartiruvchi xususiyati (kuzatadi, taqqoslaydi, guruhlaydi, tasniflaydi, xulosa chiqaradi, qonuniyatlarni aniqlaydi);
- 3) topshiriqning kutilmaganligi holati, yo'naltirilgan tadqiqotchilik ta'sirini kiritish, ijod mexanizmi, o'qituvchining yordami va rag'batlantirishi bilan kechadigan hissiy qayg'urish bilan bog'liq bo'lgan o'quvchilarning intensiv mustaqil faoliyatlari;
- 4) o'quvchilarning mustaqil fikrlashga undovchi savollar, avvaldan uy topshiriqlari bilan ta'minlanadigan o'qituvchi tomonidan yo'naltiriladigan jamoaviy izlanish;
- 5) har bir o'quvchiga ishlash usullarida tashabbus, mustaqillik, kashfiyotchilikni namoyon etishga imkon beradigan darsda muloqot pedagogik vaziyatlarni yaratish, o'quvchining o'z-o'zini tabiiy ifodalashi uchun shart-sharoitlar, muhit yaratish.

V.A.Suxomlinskiy faoliyatni mazkur xususiyat asosida atrof-olamdagi hodisalar sabab-oqibatli aloqalarining mohiyatiga chuqur kirib borishga o'rganishdan avval inson bolaligida fikrlash mashqlari davridan o'tishi kerak deb ta'kidlaydi. Mazkur mashqlar predmetlar va hodisalarni ko'rishni aks ettiradi, bola jonli obrazni ko'radi, keyin esa tasavvur qiladi, mazkur obrazni o'z tasavvurida yaratadi. Haqiqiy predmetni ko'rish va xayoliy obrazni tasavvurda yaratish – mazkur fikrlash faoliyatining ikki bosqichida hech qanday ziddiyatlar mavjud emas. Ertakning fantastik obrazi idrok etiladi, bola tomonidan fikrlanadi va uning o'zi tomonidan yorqin voqelik sifatida yaratiladi.

O'zining innovasion faoliyatida boshlang'ich sinf o'qituvchisi shunday xususiyatlarga duch keladiki, bolalik davrida fikrlash jarayonlari atrof-olamning jonli, yorqin, ifodali predmetlari bilan imkon qadar uzviy bog'liq bo'lishi kerak. Bola avval sabab-oqibatli aloqalar to'g'risida o'ylamasligi mumkin, u predmetni shunchaki ko'rib chiqsin, unda biror-bir yangilikni topsin. O'g'il bola tungi qorong'uda g'azablangan buqani ko'rdi. Bu shunchaki bola xayolotidagi o'yin emas, balki fikrlashning badiiy, she'riy elementi ham. Boshqa bola esa shu daraxtlarda biron-bir o'zicha boshqasini ko'radi – u obrazga idrok, tasavvur, fikrlashning individual xususiyatlarini kiritadi. Har bir bola nafaqat idrok etadi, balki tasvirlaydi, ijod qiladi, yaratadi. Olamni bolalikdagi ko'rish – bu o'ziga xos badiiy ijod. Bola tomonidan idrok etilgan va yaratilgan obraz o'zida yorqin hissiy ifodani aks ettiradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi innovatsiyalarni joriy etish davomida inobatga olishi kerak bo'lgan boshqa xususiyat - bu bola miyasining xususiyatlari shunchalik nozikki, idrok etish ob'ektlariga shunchalik sezgirki, anglash, idrok etish ob'ekti ko'rish, eshitish, ushlab ko'rish mumkin bo'lgan obraz bo'lganidagina ular me'yoriy ishlari bo'lishi mumkin. Fikrlash mohiyati hisoblangan fikrni ko'chirish faqatgina bolaning oldida yoki ko'rgazmali, haqiqiy obraz yoki shunchalik yorqin ifodalangan so'z bilan ifodalangan obraz bo'lishi kerakki, bola so'zlayotganini xuddi ko'rayotgandek, eshitayotgandek, his qilayotgandek bo'lishi kerak. Bola miyasining tabiati uning aqli fikrlash manbaida – fikr ko'rgazmali obrazdan mazkur obraz to'g'risidagi axborotga “ishlov berishga” o'tishi uchun ko'rgazmali obrazlar, avvalo, tabiat orasida tarbiyalanishini talab etadi. Agar bolalar tabiatdan ajratilsa, o'qishning ilk kunlaridan bola faqat so'zni idrok etsa, unda miya hujayralari tez toliqadi va o'qituvchi taklif qilgan ishni bajara olmaydi.

Bolalarning fikrlashlarini rivojlantirish, bolaning aqliy kuchlarini tabiat orasida mustahkamlash zarur – bu bola organizmining rivojlanishi tabiiy qonuniyatlarining talabi, demak, innovatsiyalar ham bunga ko'maklashishi kerak. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatining xususiyatlariga bog'liq bo'lgan keyingi muhim jihat – bu fikrning betakror hissiy rag'batlari hisoblangan, innovasion faoliyat jarayoniga atrof olamni bilish jarayonini joriy etish hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bola uchun bu rag'bat o'ta muhim rol o'ynaydi. Predmet va hodisalar umumlashadigan haqiqat u hissiyotlarga ta'sir ko'rsatuvchi yorqin obrazlar bilan jonlanishi sharti bilan bolalarning shaxsiy e'tiqodlariga aylanadi. Bola dastlabki ilmiy haqiqatlarni atrof olamda anglashi, fikr manbai go'zallik va tabiat hodisalarining tugallanmas murakkabligi bo'lishi, bola asta-sekin ijtimoiy munosabatlar, mehnat olamiga kiritilishi juda muhim.

O'qituvchi innovasion faoliyatining keyingi xususiyati boshlang'ich ta'limda to'g'ri aqliy tarbiya bilan bog'liq va dastlabki ilmiy tushunchani bolalardagi mavjud hissiy obrazlar zaxirasi bilan bog'lashdan iborat. O'qituvchi faoliyatidagi o'ziga xos xususiyat u shakllantiriladigan tushunchaga hissiy bilimlarni kiritishga rasional ravishda ko'maklashadigan hissiy obrazlar yig'indisini topishi kerak. Olamning ilmiy manzarasini tasavvur etish orqali ilmiy dunyoqarashni shakllantirish lozim.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abdullina O.A. Obshaya pedagogicheskaya podgotovka uchitelya v sisteme visshego pedagogicheskogo obrazovaniya. – M.: Prosveshcheniye, 1990. – 141 s.
2. Abduraxmanova M.A. Primeneniye innovatsionnogo opyta v pedagogicheskoy deyatel'nosti (teoretiko-sravnitel'nyy analiz) // Problemy sovremennogo obrazovaniya. – Moskva, 2017. – № 2. – S. 104-109. Elektronnyy resurs: <http://www.pmedu.ru>.
3. Karimjanov A. "Pedagogik tizimni boshqarish asoslari" Toshkent Zebo-print. 2008. 167 b.
4. Karimjanov A. "Ta'lim tizimini boshqarish asoslari" Toshkent.Zebo-print. 2012 170 b.
5. Karimjanov A., Jabborova O.M. va bosh."Pedagogik tizimini boshqarishning me'yoriy asoslari." Toshkent. "City of ,ook" 2019/ 221 ,/
6. Karimjanov A., Ochilov F.I., Karimjanova D.A. "Boshlang'ich sinflarda ta'lim tarbiya muammolari". Toshkent. "City of ,ook"2019 140 .
7. Karimjanov A., Karimjanova D.A. "Alifbo-boz' va inkishofi nutq" Toshkent. "City of ,ook" 2020. 178.b.
8. Karimjanov A. "Metodikai fanni Tarbiya" Toshkent. "City of ,ook".CHDPU 2022. 197.b.
9. Karimjanov A. "Harbiy pedagogika" Toshkent "Sharq" 2005 196.b.
10. Abildina S.K., Sarsekeyeva J.Ye. Professionalnaya podgotovka budumnyego uchitelya v sisteme visshego obrazovaniya respubliki Kazaxstan // Mejdunarodniy jurnal prikladnix i fundamentalnix issledovaniy. – 2015. – № 12-16. – S. 1114-1116.
11. Adolf V.A., Ilina N.F. Innovatsionnaya deyatel'nost pedagoga v prosesse yego professionalnogo stanovleniya. – Krasnoyarsk: Polikom, 2007. – 190 s.
12. Azgaldov G.G., Kostin A.V. Intellektualnaya sobstvennost, innovatsii i kvalimetriya // Ekonomicheskiye strategii, 2008. – № 2 (60). – S. 162-164.
13. Akimova I. Ye., Anisimova T. S. Proyektirovaniye kreativnoy obrazovatel'noy sredi shkoli kak osnovi formirovaniya uchenika novoy kulturi // Konsept. – 2015. – № S7. – S. 11-15.
14. Anisimova T. S., Nazarova N. V. Usloviya, mexanizmy i resursi kreativnoy aktivnosti pedagoga // Konsept. – 2015. – № S7. – S. 56-60.